

## O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI FANINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Roziqjonova Hosiyatxon Rahmatali qizi

University of business and science K.O'Z 24-05 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19562917>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek dialektologiyasi fanining predmeti, o'zbek shevalarining tasniflanishi va ularning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari haqida so'z boradi. Tilimizdagi shevalarning boyligi va ularning adabiy til bilan munosabati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Dialekt, sheva, lahja, tasviriy dialektologiya va tarixiy dialektologiya.

O'zbek xalq shevalarini o'rganishga qiziqish va uning tasnifi masalalari XIX asrning oxirlariga kelib, ancha kengaya bordi. XX asrning 20-30-yillarida esa bu ishlar ancha kuchaydi. O'zbek shevalarini tekshirishda va o'zbek shevashunosligining lingvistik fan sifatida tashkil topishida «Chig'atoy guruhi», E.D.Polivanov, G'ozim Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, U.Tursunov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.Aliyev,

M.Mirzayev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Bizningcha, shevashunoslikning tarixi XI asarning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg'ariyning lug'atchilik faoliyatiga borib taqaladi. Mana shu lug'at tufayli turkey qabila-urug'larning tillari bir ona tildan rivojlanganligi haqidagi ilmiy-nazariy qarash dalillar asosida tasdiqlanganki, bu hol ona tilimizning o'ziga xos nufuzini va tarixiy taraqqiyotini tasdiqlab turibdi. Hazrat Alisher Navoiy ham bundan sal kam olti asr oldin mana shu turkiy tilda, ya'ni eski o'zbek adabiy tilida she'rlar yozib, olam ahlini qalam bilan egallagan allomalardan biri sanaladi. Ilm-fan hamda she'riyat ahillari, xususan, Mavlono Lutfiy, mashhur shoir va shayx Abdurahmon Jomiy kabi ziyolilar Nizomiddin mir Alisher Navoiyning turkiy she'riyatdagi o'rnini alohida e'tirof etishgan. Xonliklar davrida ham tilimiz ijtimoiy hayotda o'z mavqeini saqlay olganligi tarixda o'z ifodasini topgan. Dialektologiya fani tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u mahalliy sheva va lahjalarning o'ziga xos muhim xususiyatlari, ularning adabiy tildan va o'zaro bir-biridan farqlari, shevalarning adabiy tilga munosabati, adabiy tilni boyitishdagi ahamiyati, shevalarning tarmoq va guruhlarini, ularning rivojlanish bosqichlari tarixi va shu kabi masalalarni o'rganadi. Dialektologiya grekcha dialektos so'zidan olingan bo'lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o'rgatadi. Dialekt — sheva, logos — ta'limot, ya'ni sheva haqida ta'limot demakdir. Dialektologiya fanining obyektini mahalliy sheva va lahjalar bo'lib, vazifalari quyidagilardan iborat:

- shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va xususiyatlarini har tomonlama tasnif qilish;

- milliy tilning shakllanishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash;

- shevalarning o'zaro munosabatini va ularning adabiy tilga bo'lgan munosabatini belgilash;

- o'xshash xususiyatlariga ko'ra shevalarning tarqalish xududlarini aniqlash;

- umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarni belgilash asosida shevalarning xarita va atlasini tuzish;

- alohida guruhga kiruvchi shevalarning umumiy tomonlari va o'xshashliklari bilan birga, o'zaro farqlanuvchi tomonlari va buning sabablarini ochib berish;

- o'zbek tilining ko'p shevali ekanligining tarixiy sabablarini aniqlash;

Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt, lahja degan terminlar qo'llanadiki, ulaming lug'aviy va terminologik ma'nolarini bilish albatta zarurdir.

“Sheva” forscha ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fandabiror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.

“Dialekt” so'zi grekcha bo'lib, sheva degan ma'noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi. “Lahja” arabcha so'z bo'lib u ham ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarni eng yirik to'ldasini anglatadi.

Makonni o'rganish nuqtai nazaridan dialektologiya ikki xil bo'ladi:

1) tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya;

2) tarixiy dialektologiya. Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy sheva va lahjalarga xos fonetik va leksik, morfologik xususiyatlarni qayd etadi, yozib oladi va ularni kartaga tushiradi.

Tarixiy dialektologiya tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shuxususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davrlarda o'zgarish, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning ishtiroki kabilarni o'rganadi.

#### **Xulosa:**

Shevalar — adabiy tilni boyitib turuvchi asosiy manba. Yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida qahramonlar xarakterini ochib berish uchun dialektizmlardan foydalanadilar. Shuningdek, qadimiy turkiy so'zlarning ko'pchiligi aynan qishloq shevalarida o'zining asl holicha saqlanib qolgan. Har bir sheva — milliy o'zligimizning bir bo'lak bo'lib, ularni saqlash va tadqiq etish tilshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

#### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. (Klassik darslik).
2. Abdullayev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: Fan, 1961.
3. Ibrohimov S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1967.
4. Jo'rayev B. O'zbek dialektologiyasi (Janubiy shevalar). – Toshkent, 1964.
5. Mirzayev M. O'zbek tili shevalari (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Fan, 1969